


## NAVOIY VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI (2020- yil 1- yanvar holatiga)



Bugungi kunda Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 30- sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarori qabul qilindi.

## Maktabgacha ta'lif tashkilotlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda



Navoiy viloyatida 2020- yil 1- yanvar holatiga jami maktabgacha ta'lif tashkilotlari soni 245 tani tashkil etdi va ulardan 48 tasi nodavlat mulkchilik shaklidagi maktabgacha ta'lif tashkilotlari hisoblanadi.


## 2019- yilda muktabgacha ta'lif tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari

Muktabgacha ta'lif tashkilotlari soni, birlik	Guruhalr soni, birlik	O'rinalr soni, birlik	Bolalar soni, kishi	100 ta o'ringa to'g'ri keladigan bolalar soni, kishi
245	1 363	34 155	34 777	102
<i>Shahar</i>				
132	981	24 890	25 516	102
<i>Qishloq</i>				
113	382	9 265	9 261	100

## 2019- yilda muktabgacha ta'lif tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

	Muktabgacha ta'lif tashkilotlari soni, birlik	Guruhalr soni, birlik	O'rinalr soni, birlik	Bolalar soni, kishi
Navoiy viloyati	245	1 363	34 155	34 777
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	44	385	10 735	10 474
Zarafshon	18	191	5 090	5 210
<i>tumanlar:</i>				
Konimex	12	51	1 300	1 273
Karmana	36	163	3 520	3 937
Qiziltepa	40	145	3 500	3 418
Navbahor	22	98	2 340	2 491
Nurota	21	100	2 005	2 284
Tomdi	6	18	780	429
Uchquduq	17	111	2 455	2 828
Xatirchi	29	101	2 430	2 433


**2019- yilda shahar va qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim  
tashkilotlari soni, hududlar kesimida, birlik**






2019- yilda maktabgacha ta'lif tashkilotlari dagi jami bolalar soni 34 777 nafarni (o'tgan yilga nisbatan 7 839 taga oshgan), ularning 53 %ini o'g'il bolalar, 47 %ini qizlar tashkil etadi. Tarbiyalanuvchilarning yosh toifalari bo'yicha 1 - 2 yoshgacha bolalar soni – 463 nafarni, 3 yoshdagi bolalar – 6 078 nafarni, 4 yoshdagi bolalar – 9 289 nafarni, 5 yoshdagi bolalar – 9 698 nafarni, 6 yoshdagi bolalar – 9 229 nafarni, 7 yoshdagi bolalar esa – 20 nafarni tashkil etadi.

### 2019- yilda maktabgacha ta'lif tashkilotlarida tarbiyalanuvchilari jinsi bo'yicha, %da



**2019- yilda hududlar kesimida muktabgacha ta'lif tashkilotlarida,  
100 ta o'ringa to'g'ri keladigan bolalar soni, kishi**




Har 100 ta o'ringa to'g'ri keladigan bolalar sonini hududlar kesimida tahlil qilinganda Zarafshon shahrida, Karmana, Navbahor, Nurota, Uchquduq va Xatirchi tumanlarida o'rinalar yetishmasligi kuzatiladi.





2020- yilning 1- yanvar holatiga muktabgacha ta'lif tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan jami pedagog xodimlar soni 3 703 nafarni tashkil etib, ulardan 35,4 %i oliy ma'lumotli, 64,6 %i o'rta maxsus pedagogik ma'lumotlilardan iborat. Pedagog xodimlar umumiylar sonidan 15 yil va undan ortiq ish stajiga ega bo'lganlar 23 %ni, shu jumladan qishloq joylarda 19,3 %ni tashkil etadi.

### **2019- yilda muktabgacha ta'lif tashkilotlarda ish stajlari bo'yicha pedagog xodimlarning soni, kishi**





**Hududlar kesimida maktabgacha ta'lif tashkilotlarining  
pedagog xodimlari soni, kishi**

	2018- yil	2019- yil
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 891</b>	<b>3 703</b>
<i>shaharlar:</i>		
Navoiy	1 022	1 142
Zarafshon	430	443
<i>tumanlar:</i>		
Konimex	62	127
Karmana	368	456
Qiziltepa	239	386
Navbahor	106	246
Nurota	185	287
Tomdi	45	46
Uchquduq	309	332
Xatirchi	125	238

***Navoiy viloyati statistika boshqarmasi  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi***

**Tel.: 79-223-54-98**